

## **OTA-ONA QARAMOG‘ISIZ, QAROVSIZ VA NAZORATSIZ QOLIB KETGAN BOLALARGA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI**

***Tirkasheva Dinoraxon Shuxratjon qizi***

*Farg‘ona viloyati Buvayda tumani*

*"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ota-onalarning qaramog‘isiz, qarovsiz va nazoratsiz qolib ketgan bolalarning psixologik holati, ularning ijtimoiy moslashuvi va rivojlanishida yuzaga keladigan muammolar yoritilgan. Shuningdek, bunday bolalarga ko‘rsatiladigan psixologik xizmatning mazmuni, uslublari hamda ularning ruhiy holatini tiklashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Psixologik yordam orqali bolalarda ishonch hissi, ijtimoiy ko‘nikmalar va hayotga ijobiy munosabat shakllanishi mumkinligi ta’kidlanadi. Maqola muammoga chuqur yondashgan holda, amaliy tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** ota-onalarning qaramog‘isiz bolalar, qarovsiz bola, nazoratsiz qolgan bola, psixologik xizmat, ruhiy salomatlik, ijtimoiy moslashuv, psixologik yordam, bolalar psixologiyasi, reabilitatsiya, emotsional qo‘llab-quvvatlash.

Yurtimizdagagi hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatda, yetim va ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalar sonining ko‘payishiga olib kelishi mumkin.. Zamonaviy sharoitda ota-onalarning g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlari, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik keng tarqalgan hodisaga aylanmoqda. So‘nggi yillarda nosog‘lom oilalarda tarbiyalangan “ijtimoiy yetimlar” soni hayratlanarli darajada o‘sdi. Ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalar sonining ko‘payishi muqarrar ravishda yetim bolalar uchun muassasalar – bolalar uylari, mehribonlik uylari, maktab-internatlar, boshpana va boshqalar sonining ko‘payishiga olib keladi. Shu bilan birga, psixologlar va o‘qituvchilarning ko‘plab tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bolani maktab-internatga joylashtirish uning asosiy ehtiyojlarini qondirishni ta’milnamaydi, bu esa o‘z navbatida bolaning rivojlanishining buzilishiga olib keladi. Maktab-internatda yashovchi bolaning natijasi uning mustaqil hayotga, ish topishga va uni ishsizlik sharoitida saqlashga tayyor emasligi, o‘z hayotini, bo‘sh vaqtini tashkil etishga, oilani yaratish va saqlashga qodir emasligi Ota onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ishlash tizimini rivojlantirish masalasi mavzu dolzarbligini belgilaydi. Jamiyatda oilaning roli o‘zining kuchi bo‘yicha boshqa hech bir ijtimoiy institutlar bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Aynan oilada insonning shaxsi shakllanadi. Jamiyatda qiyinchiliksiz moslashib ketishi uchun, u ijtimoiy vazifalarini egallaydi. Oila birinchi tarbiyaviy institut sifatida ishtirok etadi. Shunday qilib ota-onalar qaramog‘isiz qolgan bolalar ham oila davrasidagi tarbiya va ta’lim olishlari lozim. Ular uchun jamiyatimizda shart sharoitlar yetarlicha yaratilib bormoqda. O‘zbekiston

prezidentining yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori va tegishli reja hukumatning bolaning mehribon va g‘amxo‘r oila sharoitida o‘sish huquqini ta’minalashga sodiqligini yaqqol namoyish etadi. O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini uzoq muddatli isloh qilish bo‘yicha takliflarni korib chiqdilar. Bunda ijtimoiy xizmat sohasidagi professional xodimlar asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, asosiy ustivor yo‘nalishlaridan biri alohida ko‘mak va e’tiborga muhtoj insonlarga manzilli yordam ko‘rsatish bo‘lgan ijtimoiy himoya va aholiga xizmat qilishning prinsipial jihatdan yangi tizimi shakllandi. Bu sharoitda aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlami bilan ishlashda bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan yuqori malakali xodimlarga ehtiyoj va tegishli tarzda yangi kasbiy faoliyat - "Ijtimoiy ishchi"ga zaruriyat yuzaga keladi. Shu o‘rinda yetim va ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun muassasalar va ularda tarbiyalanayotgan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari tarbiyalanuvchilarning turli yosh va davrlaridagi ruhiy, ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini chuqur tushunish, mazkur bolalarga profilaktik, sog‘lomlashtirish, abilatsion va reabilitatsion choralarining majmuini ta’minalash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, muassasadan so‘ng mustaqil hayotga tayyorlash kabilarni talab etadi.

Mustaqillik yillarda yetim va ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy-profilaktik ish olib borishni yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Oliy majlisi hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Ular asosida "Mehribonlik", "Bolalar" uyilari hamda "Bolalar shaharchasi" to‘g‘risidagi Nizomlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonunning 22-moddasida ham boquvchisini yo‘qotgan bolalar haqida shunday deyilgan. "Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish va ularni boqish davlatning to‘la ta’moti asosida qonun xujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi". Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasini tomonidan maxsus Davlat dasturlarining qabul qilinganligi va amaliyotga joriy etilganligi, aholini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar respublikamizda ijtimoiy soha rivojlanishi dalolatdir. Zamonaviy jamiyatda ota-onalarning qaramog‘idan maxrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hamoya qilish va ularni qo‘llab - quvvatlash masalasiga e’tibor ortgani sayin ular bilan samarali ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislarga - ijtimoiy ish xodimlariga bo‘lgan talab ham ortmoqda.

Bugungi kunda aholining maxsus qaramog‘iga muhtoj toifalari orasida - yetim bolalar hamda ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalar alohida o‘rin tutadi. Jamiyatning asosiy vazifasi - bu bolalarni to‘laqonli ravishda sog‘lom fikrlaydigan, jamoaviy hayotga moslasha oladigan fuqarolar sifatida voyaga yetkazish va ularga keyinchalik

ijtimoiy holatlarga ko‘nikishlarida kasbiy hamda turli xil hayotiy ko‘nikmalarini singdirishdir.

Dunyo tajribasiga ko‘ra - yetim bolalar va ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalar, asosan, tezkor ravishda har bir bolaga oila topilguniga qadar vaqtinchalik patronat uylari, shelter yoki maktab-internatlariga: bolalar mehribonlik uylari, bolalar (go‘dak) uylari, umumiyy maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun maktab-internatlarga joylashtirilib, jamiyatdan uzilmagan holda bilim va tarbiyaga yo‘naltiriladilar.

So‘nggi o‘n yilliklar ichida biologik yetimlik bilan taqqoslaganda, ijtimoiy yetimlikning ko‘rsatkichlari doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Uning asosiy sababi - ota-onalarning oilaviy hayotga tayyor emasligi hamda qondosh oilasidagi muammo bo‘lib, farzandni boqish va unga ketadigan sarf-xarajat nuqtai nazaridan boquvi qimmatga tushishi sababli undan voz kechish tendensiyasi kuchli. Aslida arzon malakali yordam tizimini, shu jumladan, bolaning oilasini saqlab qolishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, tibbiy, psixologik, pedagogik xizmatlar tizimini rivojlantirish orqali yengib o‘tish, ijtimoiy yetimlik ko‘lamini kamaytirish kerak.<sup>1</sup>

Ushbu holat, shubhasiz, bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadi, yetimlarni maktab-internatlarda saqlash kerakli natijani bermaydi.

Chet ellik olimlarning fikriga ko‘ra, bolalar uyida yashovchi voyaga yetmaganlar, an’naviy oilalarda o‘sadigan tengdoshlaridan farqli o‘laroq, nafaqat jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanish kechikishlariga ega, balki ularning sharoitlariga moslashishga imkon beradigan o‘ziga xos xususiyatlarni shakllantiradilar. Maktab-internati oiladan ayro holda, jamiyatda yetarli darajada moslashishga hissa qo‘shmaydi.

Shu bilan birga, chet el tajribasini o‘rganish va qisman mahalliy ijtimoiy amaliyotga joriy etish mahalliy yetim bolalarga oilada yashash tajribasini to‘plash va jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish imkoniyatini beradi; ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy ishlarning jahon tajribasi mamlakatimizdag ijtimoiy yetimlikning oldini olish va minimallashtirish uchun ichki birlashgan davlat standartlarini, ijtimoiy xavfli vaziyatda bo‘lgan oilalar bilan ishslashning innovation texnologiyalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Bugungi globallashuv davrida jamiyatimizda ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda ruhiy-psixologik muammolarga duch kelayotgan bolalar soni ham ortib bormoqda. Ayniqsa, ota-onan qaramog‘isiz, qarovsiz yoki nazoratsiz qolib ketgan bolalarning taqdiri, ularning psixologik holati va ijtimoiy rivojlanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday bolalar jamiyat tomonidan alohida e’tibor va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lib, ular bilan tizimli ravishda ishslash muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йуналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. Журнал Социальных Исследований, 3(6).

Ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalar ko‘pincha mehr va e’tibordan chetda qoladi. Ular o‘z tengqurlari bilan solishtirilganda, ruhiy va emotsiyal rivojlanishda orqada qolishlari, o‘ziga ishonchsizlik, xavotir, tajovuzkorlik, depressiya kabi holatlar bilan to‘qnash kelishlari mumkin. Bunday muammolarni bartaraf etishda psixologik xizmat ko‘rsatish muhim rol o‘ynaydi.

Psixologik xizmatlar bunday bolalarning ichki kechinmalarini tushunishga, ularning ruhiy muvozanatini tiklashga, ijtimoiy hayotga moslashishiga va ijobiy shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Psixologlar tomonidan olib boriladigan individual suhbatlar, guruhli mashg‘ulotlar, terapiya usullari (masalan, san’at terapiyasi, o‘yin terapiyasi) bolalarning o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishida va ularni boshqarishda yordam beradi.

Shuningdek, bunday xizmatlar orqali bolalar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni tiklaydi, muammolarini hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intiladigan shaxs sifatida voyaga yetadi. Bu esa ularning kelajagi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytganda, ota-onal qaramog‘isiz, qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalarga psixologik xizmat ko‘rsatish nafaqat ularning hozirgi holatlarini yaxshilaydi, balki ularning kelajagini yorqinroq qilishga xizmat qiladi. Bu borada davlat tashkilotlari, psixologlar, pedagoglar va jamoatchilikning hamkorlikda ishlashi juda muhimdir. 18-yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolishi mumkin, bunda ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Bunday vaziyatlar qatoriga nogironlik, yetimlik, nazoratsizlik, qarovsizlik, oiladagi qattiqqo‘l munosabat va h.k.lar kiradi. Konkret vaziyatga bog‘liq holda bolalar va o‘smirlarga ijtimoiy yordam va xizmatni turli ijtimoiy xizmatlar va tashkilotlar ko‘rsatadilar. Yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish. Yetim-bolalar ikkala ota-onasi yoki ulardan biri o‘lib ketgan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslardir; ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar – bu otaonasining mavjud emasligi yoki ularning ota-onalik huquqlarini olib tashlanganligi, ota-onalik huquqlarini cheklanganligi, ota-onalarni bedarak yo‘q bo‘lib ketgan deb tan olinishi, ota-onalikka layoqatsizligi (qisman layoqatliligi), davolanish muassasalarida ekanligi, ularni o‘lgan deb e’lon qilinganligi, ozodlikdan mahrum etish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotganligi, jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan va gumon qilinayotganlarni qamoqda ushlab turish muassasalarida ekanligi bilan bog‘liq holdagi qarovsiz qolgan; bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan ota-onalarni bo‘yin tovashi, ota-onalar tomonidan bolalarni tarbiyalash, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari va boshqa shunga o‘xshash muassasalardan olib ketishini rad etish va boshqa hollarda esa qonun tomonidan belgilangan tartibda bolani ota- onasining qarovsiz qolib

<sup>2</sup> Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. Человек. Наука. Социум, (2), 62-74.

ketgan deb tan olinishi bilan bog‘liq holdagi qarovsiz qolgan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Узбекистан Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев "Етим болалар ва ота-онасининг карамогидан маҳрум булган болаларни ижтимоий химоя килишни қучайтиришга оид қушимча чора-тадбирлар тугрисида" карори. 12.02.2019.
2. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш қасбий фаолиятининг мактабга йуналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. Журнал Социальных Исследований, 3(6).
3. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. Человек. Наука. Социум, (2), 62-74.
4. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. Человек. Наука. Социум,
5. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. Ученый XXI века, 62.
6. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. Человек. Наука. Социум, (2), 8-27.